


## 2019-yil 1-noyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'mida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyatimizda 5614 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2701 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5265 ta (28,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 23978 tani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-noyabr holatiga 23978 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,1 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,3 % savdo, 15,3 % sanoat, 10,7 % qurilish, 9,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,8 % tashish va saqlash, 1,0 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 22,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.11.2019 yil	
	01.11.2018 yil	01.11.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>18713</b>	<b>23978</b>	<b>128,1</b>	<b>100</b>

*shundan:*

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1941	2361	121,6	9,8
Sanoat	2691	3681	136,8	15,3
Qurilish	1968	2564	130,3	10,7
Savdo	4005	5817	145,2	24,3
Tashish va saqlash	1193	1380	115,7	5,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1215	1859	153,0	7,8
Axborot va aloqa	220	245	111,4	1,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	495	568	114,7	2,4
Boshqa turlari	4985	5503	110,4	22,9

Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (7 667 ta), G'ijduvon (2 605 ta), Romitan (1 906 ta) va Buxoro (1 797 ta) tumanri hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (464 ta), Olot (742 ta)tumanlari, hamda Kogon shahri (896 ta) da korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 22874 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5114 ta (28,8 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,1 % savdo, 15,4 % sanoat, 10,6 % qurilish, 9,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,8 % tashish va saqlash, 1,0 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 23,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (7 410 ta), G'ijduvon (2 361 ta), Romitan (1 857 ta), Buxoro (1 679 ta) va Jondor (1 529 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (454 ta), Olot (657 ta) tumanlari hamda Kogon shahri (876 ta) da korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 5 614 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2 701 taga ko'pdir.

### Yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Buxoro shahri (1 717 ta), G'ijduvon (640 ta), Romitan (538 ta) va Jondor (403 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (121 ta), Olot (190 ta), Kogon (232 ta) tumanlarida, hamda Kogon shahri (252 ta) ga korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1 916 ta), sanoat (1 130 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (577 ta) va qurilish (528 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (46 ta), sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (72 ta), hamda tashish va saqlash (245 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Tijorat korxonalari**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-noyabr holatiga 22 874 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3 460 ta, oilaviy korxonalar – 1 682 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 14 056 ta va boshqalar 3676 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat  
ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

**Mas'uliyati cheklangan  
jamiyati**



**Xususiy korxona**



**Oilaviy  
korxona**



**Unitar korxona**



**Aksiyadorlik  
jamiyati**



**Boshqalar**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 265 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 120 taga yoki 182,8 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-noyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 265 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqorisi Buxoro shahri (143 ta), Kogon tumani (20 ta), Kogon sh. (14 ta) va Buxoro tumani (12 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Olot (5 ta), Qorako'l (6 ta) hamda Shofirkon (7 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 152 tasi qo'shma korxonalar, 113 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



### Tumandlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Buxoro viloyati	265	100,0

*tumanlar:*

Olot	5	1,9
Buxoro	12	4,5
Vobkent	7	2,6
G'ijduvon	8	3,0
Kogon	20	7,5
Qorako'l	6	2,3
Qorovulbozor	9	3,4
Peshku	15	5,7
Romitan	8	3,0
Jondor	11	4,2
Shofirkon	7	2,6
Buxoro sh.	143	54,0
Kogon sh.	14	5,3


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 108 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 55 taga ko'paygan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar (58 ta yoki jamidagi ulushi 53,7%), Kogon tumani (8 ta yoki 7,4 %) va Kogon shahri (8 ta yoki 7,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Vobkent, Qorako'l tumanlari (1 tadan yoki 0,9 %), Buxoro tumani (2 tadan yoki 1,9 %) va Jondor, G'ijduvon tumanlari (3 tadan yoki 2,8 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Turkmaniston Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 31 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 18 ta, Turkiya Respublikasi - 12 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 12 ta, Koreya Respublikasi - 6 ta va Eron Islom Respublikasi – 3 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radian bo'lsak, asosan savdo (34 ta), sanoat (32 ta), qurilish (17 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (11 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (2 ta), hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (6 ta).


**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



**Kichik korxona va mikrofirmalar  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

2019-yil 1-noyabriga holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 19 418 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-noyabriga qaraganda 34,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 6 504 tasi (33,5 %) Buxoro shahri, 2 018 tasi (10,4 %) G'ijduvon, 1 618 tasi (8,3 %) Romitan, hamda 1 453 tasi (7,5 %) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 19 418 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5 483 tasi (28,2 %) - savdo, 3 478 tasi (17,9 %) - sanoat, 2 417 tasi (12,4 %) - qurilish, 2 153 tasi (11,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 760 tasi (9,1 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1 312 tasi (6,8%) - tashish va saqlash bo'yicha xizmatlar sohasi, 219 tasi (1,1%) - axborot va aloqa sohasi, 480 tasi (2,5 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 2116 tasi (10,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 5424 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,1 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahri (1 645 ta), G'ijduvon tumani (628 ta), Romitan tumani (522 ta) va Jondor tumani (317 ta) hissasiga to'g'ri

keladi. Eng kam Qorovulbozor tumani (119 ta), Olot tumani (186 ta), Kogon tumani (224 ta), Kogon shahar (238 ta) tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1 916 ta), sanoatda (1 128 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (607 ta) va qurilishda (559 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (46 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (69 ta), hamda tashish va saqlashda (245 ta) tashkil etilgan.

### **Oilaviy korxonalar**


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-noyabr holatiga 1 774 tani tashkil etib, ulardan 1 682 tasi yoki 94,8 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu

davrige nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'ssatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 81,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




### Faoliyat ko'ssatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 28,0 % yoki 471 tasi sanoat, 31,4 % yoki 529 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 20,3 % yoki 341 tasi savdo, 8,9 % yoki 150 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,9 % yoki 15 tasi tashish va saqlash, 1,9 % yoki 32 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 15 tasi qurilish, 0,6 % yoki 10 tasi axborot va aloqa hamda 7,1 % yoki 119 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy

xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


### 2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>799</b>	<b>100</b>
Olot	35	4,4
Buxoro t.	42	5,3
Vobkent	66	8,3
G'ijduvon	143	17,9
Kogon t.	37	4,6
Qorako'l	45	5,6
Qorovulbozor	10	1,3
Peshku	45	5,6
Romitan	46	5,8
Jondor	45	5,6
Shofirkon	77	9,6
Buxoro sh.	161	20,1
Kogon sh.	47	5,9

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 799 taga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,7 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Buxoro sh. (161 ta), G'ijduvon (143 ta), Shofirkon (77 ta)

hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorovulbozor (10 ta), Olot (35 ta), Kogon (37 ta) hamda Peshku (45 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 28,8 % yoki 230 tasi sanoat, 26,5 % yoki 212 tasi savdo, 29,7 % yoki 237 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 5,5 % yoki 44 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi, 0,4 % yoki 3 tasi qurilish, 1,1 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 6,6 % yoki 53 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Buxoro viloyati  
Statistik registrlarni yuritish  
Tel.:71-230-83-20 (21)**